

30-Oktyabr, 2025-yil

**AUTIZM SPEKTR BUZILISHI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH
METODIKASI**

**МЕТОДИКА РАБОТЫ С ДЕТЬМИ С РАССТРОЙСТВОМ
АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА.**

**METHODOLOGY FOR WORKING WITH CHILDREN WITH AUTISM
SPECTRUM DISORDER**

Umida O‘tbasarova Mexmanovna

*Alfraganus Universiteti oliy ta'lim tashkiloti Pedagogika va Psixologiya PhD v.b
dotsent*

Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi

*Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Defektologiya yo‘nalishi
talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi globallashuv davridagi maxsus ehtiyojli bolalar, xususan, autizm spektr buzilishiga (ASD) ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonidagi qo‘llanilish kelinayotgan samarali metodikalar xorijiy va mahalliy tajriba asosida tahlil qilinadi. Dastlab autizm spektr buzilishiga ega bolalarni erta aniqlash, ularga mos holatda ta’lim-tarbiya berish, ijtimoiylashtirish va qo‘llab-quvvatlash kabi dolzarb masalalarga yechim topish lozimdir. Har yili dunyo miqyosida autizm tashxisi bilan o‘g‘riyotgan bolalar sonining ortib borayotgani defektologik xizmatlarni yuqori bosqichga olib chiqishni talab qilmoqda. Autizmlil bolalar bilan ishlashda umumiy yondashuv emas, balki individual metodikalar muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: autizm spektr buzilishi (ASD), PECS kartochka, stereotipik harakatlar, Multidisiplinar, perenatal davr, ABA terapiya, TEACCH metodikasi, Kognitiv rivojlanish, Sensor muvozanat muammolari, Taktik stimullar.

Аннотация: В данной статье на основе зарубежного и отечественного опыта анализируются эффективные методики, применяемые в работе с детьми с особыми потребностями в условиях современной глобализации, в частности, с детьми с расстройствами аутистического спектра (РАС). В первую очередь необходимо найти решения таких актуальных вопросов, как ранняя диагностика детей с расстройствами аутистического спектра, предоставление им соответствующего образования и воспитания, социализация и поддержка. Ежегодное увеличение количества детей, которым ставится диагноз аутизм во всем мире, требует повышения уровня дефектологических услуг. В работе с детьми с аутизмом важную роль играет не общий подход, а индивидуальные методики.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра (РАС), карточки PECS, стереотипные движения, мультидисциплинарность, пренатальный период, АВА-терапия, методика TEACCH, когнитивное развитие, проблемы сенсорного баланса, тактильные стимулы.

Annotation: This article analyzes effective methods currently used in working with children with special needs, particularly those with Autism Spectrum Disorder (ASD), based on both international and local experiences in the context of modern globalization. Initially, it is necessary to find solutions to such pressing issues as early identification of children with ASD, providing them with appropriate education and upbringing, social integration, and support. The increasing number of children diagnosed with autism worldwide each year requires the development of high-level defectological services. In working with children with autism, not a general approach, but individual methods play a crucial role.

Keywords: Autism Spectrum Disorder (ASD), PECS cards, stereotypical movements, multidisciplinary, prenatal period, ABA therapy, TEACCH method, cognitive development, sensory balance issues, tactile stimuli.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). [2].

So‘nggi yillarda rivojlanishning kamchiliklari orasida autizm spektrining buzilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning sababi shundaki, statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, autizm spektri buzilgan bolalar 2000-yilda 10000 boladan 4-26, 2005-yilda 250-300 va 2008-yilda 150 boladan bittasida uchraydi. AQSh kasalliklarni nazorat qilish markazlari shuni ko‘rsatadiki, 2012-yildan 2020-yilgacha har 88 bolaga 1 ta autizm holati to‘g‘ri kelsa, 2022-yilga kelib esa har 44 bolaga bitta holat to‘g‘ri keladi. Ushbu rivojlanish buzilishining chastotasini doimiy ravishda o‘tib borishi, kasallik bilan og‘rigan bolalarni erta aniqlash va korreksion pedagogik mashg‘ulotlarni aniq va samarali yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Ammo, autizm spektri buzilishi mavjud bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashtirish bir qancha qiyinchiliklarga sabab bo‘lsada, ular bilan individual mashg‘ulotlar ko‘proq olib borishni talab etadi. . “Autizm spektrining buzilishi” (ASB) atamasi neyrorivojlanish buzilishi bilan bog‘liq holatda markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin deb qaraladi. Ammo bu kasallik etiologiyasi hali to‘liq aniqlanmagan va bu esa kasallik turlarini xilma xilligini taminlaydi. ASB bolalar asosan odamovilik(odamlardan o‘zini tortish), insonlar bilan muloqotga ehtiyoji yo‘qligi, o‘zining olamida tinch yashashi va o‘zi uchun yoqimsiz holatlarga nisbatan qarshiliklarini turli holatda namoyon qilishi, turli takrorlanuvchi manosiz (steriotip) hatti harakatlar bilan boshqa bolalardan ajralib turishi bilan farqlanadi. ASB belgilari chaqaloqlik paytlaridan ham ko‘zga tashlanishi mumkin. Ba‘zan bu belgilar 12-18 oyda paydo bo‘ladi, ba‘zan esa sensor sohalaridagi dastlabki rivojlanish belgilariga yana bir necha yil davomida tashxis qo‘yilmaydi. Ko‘plab olimlar (S.S.Mnuxin 1949, D.N.Isaev, V.E.Kagan, K.S.Lebedinskaya 1990) erta bolalik autizm sindromining organik kelib chiqishi asab tizimining homila vaqtida shikastlanishi, miya

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

yarim po‘stlog‘idagi lokalizatsiya bilan bog‘liq deb hisoblashadi. Autizm rivojlanishining asosiy sabablari fenilketonuriya, qizilcha, ichak kasalliklari, homiladorlik paytida kimyoviy ta’sir deb ham taxmin qilinadi. Zaif X xromosoma sindromi va autizm mavjudligi o‘rtasida ishonchli statistik bog‘liqlik mavjud. Erta tug‘ruqdan keyingi og‘ir infeksiyalar autizmning sababi bo‘lishi mumkin. Hozirgi vaqtda chet elda L.Ving, K.Lord, M.Rutter, D.L.Robbins autizmning paydo bo‘lishi va uning namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanmoqdalar. Bundan tashqari, o‘qitish va diagnostika vositalari usullari takomillashtirilmoqda. E.R.Bayenskaya, M.M.Liebling, V.V.Lebedinskiy, O.S.Nikolskayaning tadqiqotlari autizmi maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy sohasidagi muhim buzilishlar sifatida ko‘rib chiqadi. Olimlar V.M.Bashina va E.Courchesne miya yarim po‘stlog‘ining buzilgan funktsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan autizmning kelib chiqishi genetikasi va neyrobiologiyasini tahlil qildilar. Rivojlanish nuqsonlarining paydo bo‘lishi ham genetik, ham tashqi omillarga asoslangan. Autizm sindromining belgilari bir qancha bo‘lib, bir biridan farq qiladi. Har bir autizm sindromiga ega bo‘lgan bolada turli xil belgilari kuzatiladi. Chaqaloqlik paytlaridanoq normal rivojlanishdan chetlashish kuzatiladi. O‘zidan-o‘zi qichqirishi, so‘zlar paydo bo‘lsada ularni nutqda qo‘llay olmasligi, so‘zlarning ma’nolarini tushunmasligi, ko‘zga qaray olmasligi va boshqa belgilar kuzatiladi.. Autizm turlari ham belgilarning paydo bo‘lishiga, ularda kuzatiladigan holatlarga ko‘ra birqancha turlarga bo‘linadi. Ya’ni tipik autizm, atipik autizm, ret sindromi, asperger sindromi, Bolalikdagi autizm kabi birqancha turi mavjud bo‘lib, ularning har birini o‘ziga xos xarakterli belgilari mavjud. Respublikamizda aynan autizm sindromiga ega bo‘lgan bolalar uchun uslubiy adabiyotlar, yangi metodlar ishlab

chiqilmaganligi, korreksion yordam ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmaganligi bu autizmga ega bo‘lgan bolalarning dolzarb muammosi sifatida qaraladi. Bu mavzumizning maqsadi ham autizm sindromli bolalar ta’limida korreksion pedagogik faoliyatni tashkil qilishga qaratildi. Bolalarda autizm bilan bog‘liq nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha 4 ta asosiy metodika mavjud. Bular: TEASSN, ABA, Son-Rise hamda SIR hisoblanadi. Bu metodikalar autizmga ega bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishida, boshqalar bilan muloqotga kirishishiga, his-tuyg‘ularni tushunishiga yordam beradigan korreksiyalash usullari jamlangan o‘ziga xos metodikalar sanaladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda autizm sindromli bolalar ta’limida korreksion pedagogik faoliyatni tashkillash uchun birinchi navbatda bunday autistik ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun alohida maktabgacha ta’lim muassasalarini tshkillashtirish, u yerga yetarli mutaxassis defektolog, logoped, surdopedagoglarni jalb etish, autizm sindromiga ega bo‘lgan bolalar bilan individual shug‘ullanish ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash bo‘yicha samarali ishlarni olib borish, har bir autizm sindromiga ega bo‘lgan bolaning nuqsonlarini korreksiyalash bo‘yicha turli metodlar ishlab chiqish va ulardan foydalangan holda pedagogik faoliyatni tashkil qilish zarur va bu bugungi kunning dolzarb muammosi desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Tadqiqotning maqsadi - autizm sindromiga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’limda korreksion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish ularga to‘g‘ri usul va metodlardan

foydalangan holda ulardagi kamchiliklarni to'ldirish, bartaraf etish, ijtimoiy hayotga tayyorlash va ulardagi bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga qaratilgan. Tadqiqotning vazifasi - autizm sindromli bolalar bir-biridan farq qiladi va har birining o'qish uslubi, ehtiyojlari va qobiliyatlari boshqacha hisoblanadi. Shuning uchun umumiy o'quv rejasiga o'xshash bir nechta darsliklarni barchaga bir xil qo'llashning o'rniga har bir bolaga moslashtirilgan individual o'quv rejalari yaratish lozim. Negaki autizmli bolalarning ba'zilari muloqot va organism jarayonlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning ba'zilari ko'proq vizual materiallarga [1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm spektori buzilishi mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlashda an'anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim platformalari, moslashtirilgan dasturiy vositalar, kommunikatsiya texnologiyalari hamda virtual rehabilitatsiya uslublari samarali natijalar bermoqda. [2]. Autizmi bo'lgan shaxslarga yordam tizimi dastlab XX asrning 60-yillarida AQSh va G'arbiy Yevropada shakllandi. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, Yevropada (dunyoda) autistik bolalar uchun ilk maktab hisoblanmish Sofienskole Daniyada 1920 yili ish boshladi, bu vaqtda na psixiatriyada, na maxsus pedagogikada bolalar autizmi tushunchasi hali shakllanmagandi. Bundan tashqari, EBA bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish tizimining rivojlanish tarixini 50-yillarning oxirida paydo bo'lgan, deb hisoblash mumkin. Chunki psixotahlilning turli-tuman variantlari tamoyillariga asoslangan tarzda faoliyat yurituvchi kam sonli xususiy korxonalar aynan shu yo'nalishda ish olib bordilar. Ma'lumki, EBA psixotahlil nuqtai nazarida bola va atrof olam, avvalo, bola va ona (psixoanalitiklar fikriga ko'ra, o'zining ustun, shafqatsiz, sovuq faolligi bilan bolaning o'z faollini rivojlantirishini bostiradigan “ona – muzlatkich”) o'rtasidagi nizo oqibatining o'zidir. Bu fikrlar tasdiqlanmadi, biroq ular autizmi bo'lgan shaxslar manfaatlarini taqdim etish huquqiga ega bo'lgan, autisit farzandi bor ota-onalarni birlashtiruvchi jamoatchilik tashkilotlarini yaratishni tezlashtirdi (Angliyada 1962 yil, AQSh da 1965 yil). Aynan ota-onalarning jamoatchilik birlashmalari ko'plab mamlakatlarda davlatni o'zlarining autistik fuqarolarini ularning PEDAGOGY OF COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES International scientific-practical conference, November 13, 2023 579 imkoniyatlariga barobar bo'lgan tahsil olishga konstitutsion huquqlarini amalga oshirish yuzasidan o'z majburiyatlarini bajarishga majburladi. Bunda iqtisodiy omil juda katta rol o'ynadi, chunki autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash (ayniqsa, boshlang'ich va ba'zida o'ta uzoq muddatli bosqichda) individual ishni talab qiladi, bu esa ta'lim xizmatlarining narxini keskin qimmat bo'lishiga olib keladi. Nyu-Jersi shtatining rasmiy hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra bir yilda bitta autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolani o'qitish 29 ming dollarga tushadi, oddiy bolani ommaviy maktabda o'qitish esa 10 ming dollarni tashkil etadi. Muhokama. Autizmi bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatish tizimini yaratish to'g'risidagi qaror inson huquqlari pozitsiyasidan qabul qilinmasligi mumkin emas, biroq iqtisod

2. Autizm spektr buzilishining mohiyati

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Autizm – bu asosan bolalik davrida namoyon bo‘ladigan va insonning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, muloqotda bo‘lishi va xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan rivojlanish buzilishidir. Autizm spektr buzilishi (ASD) deganda, turli darajadagi autistik holatlar kiradi. Ularning umumiy jihati – nutq rivojining kechikishi, ijtimoiy aloqalarning sustligi, stereotipik (bir xilda takrorlanuvchi) harakatlarning ko‘pligi hisoblanadi.

ASD sabablari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan bo‘lsada, olimlar genetik omillar, prenatal (homiladorlik davridagi) ta’sirlar va atrof-muhit omillarining kompleks ta’siri natijasida yuzaga kelishini ta’kidlaydilar.

3. ASD bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari

Autizmlı bolalar ko‘pincha quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy aloqalarning sustligi: Bola atrofdagilar bilan ko‘z kontaktiga kira olmaydi, o‘yinlarda ishtirok etmaydi, yakka tartibda harakat qiladi.

Nutq va muloqot muammolari: Ba’zilar umuman so‘zlamaydi, boshqalari esa echib bo‘lmaydigan so‘z birikmalarini takrorlaydi (echolaliya).

Xatti-harakatlarda stereotipiya: Doimiy ravishda bir harakatni qayta-qayta bajaradi (masalan, qo‘l silkitish, aylanib yurish).

Sensor muvozanat muammolari: Tovush, yorug‘lik yoki teginishga haddan ortiq sezuvchan yoki befarq bo‘lishi mumkin.

Kognitiv rivojlanish farqlari: Ba’zilar intellektual rivojlanishda orqada qoladi, ba’zilar esa ma’lum bir

sohada (masalan, matematika yoki musiqa) juda kuchli bo‘ladi

4. ASD bilan ishlashda asosiy metodik usullar

Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda eng muhim jihat – individuallashtirilgan, tizimli va uzluksiz yondashuvni ta’minlashdir. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari farqli bo‘lganligi sababli, ishlatiladigan metodikalar ham o‘ziga xos tanlanishi kerak. Bugungi kunda jahonda va O‘zbekistonda keng qo‘llanilayotgan asosiy metodikalar shulardan iborat:

1. TEACCH dasturi

2. ABA terapiya (tadbiyaviy tahlil asosida o‘qitish)

3. PECS (rasmlar orqali muloqot tizimi)

4. Sensor integratsiya terapiyasi

Bu metodikalar orqali autizmlı bolalarning muloqoti, ijtimoiy harakatlari va mustaqilligi rivojlantiriladi.

5. TEACCH metodikasi (Treatment and Education of Autistic and Communication Handicapped Children)

TEACCH metodikasi 1970-yillarda AQShning Shimoliy Karolina universiteti tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yondashuv autizmlı bolalarning tartib, strukturaviylik va vizual yordamlar asosida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Asosiy tamoyillari:

Vaqt va makonni strukturaviylashtirish: Har bir faoliyat aniq va tushunarli tarzda tashkil etiladi (jadval, rangli belgilar, grafikalar yordamida).

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

Vazifalarni bosqichma-bosqich o‘rgatish: Har bir topshiriq vizual tarzda ko‘rsatib tushuntiriladi .

Muhitni soddalashtirish: Ortacha shovqin, ortiqcha bezaklar yo‘q, muhit bolaning e‘tiborini chalg‘itmaydigan darajada.

Vizual yordamlar: Rasmlar, diagrammalar, jadvallar orqali bola nima qilish kerakligini tushunadi.

Masalan :

Bola darsga kelganida, u eshik yonidagi jadvaldan “Bugun nima qilaman?” degan jadvalni ko‘radi. Har bir faoliyat uchun u belgilangan joyga boradi, topshiriqni bajaradi va keyingi vazifaga o‘tadi.

6. ABA terapiya (Applied Behavior Analysis – Tadbiyaviy ahamiyati)

ABA terapiya autizmli bolalarning xulq-atvorini tahlil qilish va uni ijobiy tomonga o‘zgartirish orqali o‘qitishga asoslangan. Bu metodika ayniqsa AQSh, Kanada va Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llaniladi.

Ijobiy mustahkamlash: Bola to‘g‘ri harakat qilganida uni rag‘batlantirish (quvonch, taqdirlash, o‘yin).

Xulqni tahlil qilish: Bolaning noto‘g‘ri xatti-harakatiga nima sabab bo‘lganini aniqlash va uni o‘zgartirishga qaratilgan reja tuzish.

Ketma-ket bosqichlarda o‘rgatish: Harakatlar bo‘laklarga bo‘linadi va birin-ketin o‘rgatamiz.

7. PECS – Rasmlar orqali muloqot tizimi

PECS (Picture Exchange Communication System) – bu muloqotda nutqi sust yoki yo‘q bo‘lgan bolalarga yordam beradigan vizual kommunikatsiya tizimi. Bola kerakli narsani (masalan, suv, o‘yinchoq) rasm orqali ko‘rsatadi va bu orqali o‘z istagini ifodalaydi.

Bosqichlari quyidagilar :

Tanlash va taqdim qilish: Bola kerakli narsaning suratini tanlab, uni o‘qituvchiga uzatadi.

Yagona so‘z: Har bir rasm muayyan ma‘noni anglatadi (“suv”, “meni quchoqla” va h.k.).

Rasmlarni birlashtirish: Bola bir nechta rasmni qo‘shib “Men suv istayman” mazmunida jumlar tuzadi.

Masalan :

Bola PECS jadvalidan “shar” rasmchasini olib, o‘qituvchiga beradi. Bu orqali u: “Men shar bilan o‘ynashni xohlayman” degan signalni bildiradi.

8. Sensor integratsiya terapiyasi

Sensor integratsiya terapiyasi — bu autizm spektr buzilishi (ASD) bo‘lgan bolalarda tashqi muhitdan kelayotgan sezgi axborotlarini qabul qilish, qayta ishlash va ularga mos javob berish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvdir.

ASD bo‘lgan bolalar ko‘pincha tovushga, yorug‘likka, teginishga yoki harakatga haddan tashqari sezuvchan (yoki befarq) bo‘lishadi. Bu holat ularning xatti-harakatida, o‘yin faoliyatida va muloqotida salbiy aks etadi.

30-Oktyabr, 2025-yil

Sensor muvozanatni shakllantirish

Harakat-motor koordinatsiyasini rivojlantirish

Bolaning o‘zini tutishini nazorat qilish

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Autizm spektr buzilishi bo‘lgan bolalar bilan ishlash — bu nafaqat ilmiy bilim, balki yuksak insoniylik, sabr-toqat va shaxsiy yondashuvni talab qiladigan murakkab, ammo o‘ta muhim jarayondir. TEACCH, ABA, PECS kabi zamonaviy metodikalar autizmli bolalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Defektolog nafaqat pedagogik, balki psixologik va ijtimoiy ko‘makni ham taqdim etishi lozim. Har bir autizmli bola o‘ziga xos olam, va bu olamga kirib borish — bilimdon, sinchkov va mehrli mutaxassis qo‘lida samara beradi. Shunday ekan, defektologlaruchun ASB bo‘lgan bolalar bilan ishlashda zamonaviy metodikalarga tayangan holda, o‘z ish faoliyatini puxta rejalashtirish va ijodkorlik bilan olib borish muhim ro‘l o‘ynaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Артемов, В.А.Речевая интонация Экспериментальная фонетика / В.А. Артемов // Вып.3. - Минск, 2008. - С.196-213.

2.Амосова, Н.Н, Каплина Н.И. Практические упражнения для восстановления речи у больных после инсульта, черепно-мозговой травмы и других заболеваний головного мозга / Н.Н. Амосова, Н.И. Каплина. - «АСТРЕЛЬ», Москва, 2009

3.Ахутина, Т.В. Поражение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса / Т.В. Ахутина. - М, МГУ, 2009.

4.Бейн, Э.С.,Бурлакова, М.К., Визель, Т.Г.Восстановление речи у больных с афазией / Э.С. Бейн, М.К. Бурлакова, Т.Г. Визель. - М. Медицина. 2002.

5.Блыскина, И.В.Комплексный подход к коррекции речевой патологии у детей. Логопедический массаж. Методическое пособие для педагогов дошкольных образовательных учреждений / И.В. Блыскина. - Санкт Петербург, «Детство-Пресс», 2011.

6.Балунов, О.А., Кушниренко, Я.Н. Динамика функционального состояния больных, перенесших инсульт // Журнал неврологии и психиатрии, № 6, 2000.

7.Виленский, Б.С. Инсульт: профилактика, диагностика и лечение / Б.С. Виленский. - СПб., 1999.

8. Выготский, Л.С.Собрание сочинений: В 6-ти томах. Т.6. Научное наследство/Под ред. М. Г. Ярошевского. – М.: Педагогика, 1984. 61

9 .Визель, Т.Г.Основы нейропсихологии / Т.Г. Визель. – М., 2006.

10.Визель.Т.Г.Как вернуть речь / Т.Г. Визель. - ТЦ Сфера, В.Секачев, 2005.

11.Волкова,Л.С.Логопедия / Л.С. Волкова. – Москва, 2016.

12.Изучение и коррекция речевых расстройств //Межвузовские статьи, научные труды. - [Электронный ресурс: <https://elibrary.ru/item.asp?id=25799424>].